

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 231 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TALIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanov Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymurotova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	

NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI



Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, DSc.
E-mail: xulugbek1984@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3589-373X



Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich

Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0005-7364-2105

Annotatsiya. Mazkur maqolada notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos jihatlari hamda auditorlik hisobotlarining ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida notijorat tashkilotlar moliyaviy faoliyatining shaffofligini ta'minlash, mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilishda auditorlik tekshiruvining tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, notijorat sektorida auditorlik tekshiruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini baholash, donor mablag'lari va grantlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan auditorlik risklari hamda ularni kamaytirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Maqolada auditorlik hisobotlarining mazmuni, tuzilishi va ularning manfaatdor tomonlar uchun axborot manbai sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari notijorat tashkilotlarda moliyaviy nazoratni kuchaytirish, hisobdorlik va ochiqlik darajasini oshirish, shuningdek auditorlik amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Kali so'zlar: Notijorat tashkilotlar, auditorlik tekshiruvi, auditorlik hisoboti, moliyaviy nazorat, grant mablag'lari, auditorlik riski, moliyaviy shaffoflik, ichki nazorat, hisobdorlik.

Abstract. This article analyzes the specific aspects of audit activities in non-profit organizations and the significance of audit reports from both theoretical and practical perspectives. Within the scope of the study, the role of auditing in ensuring financial transparency of non-profit organizations, monitoring the targeted and efficient use of funds, is highlighted. Additionally, the unique features of organizing audits in the non-profit sector, assessing the reliability of financial statements, audit risks arising during the use of donor funds and grants, and mechanisms to mitigate these risks are examined. The article also provides a scientific analysis of the content, structure, and importance of audit reports as an information source for stakeholders. The research findings can contribute to strengthening financial control, improving accountability and transparency, and enhancing audit practices in non-profit organizations.

Keywords: Non-profit organizations, audit, audit report, financial control, grant funds, audit risk, financial transparency, internal control, accountability.



Аннотация. В данной статье анализируются специфические аспекты аудита в деятельности некоммерческих организаций, а также значение аудиторских отчетов с научно-теоретической и практической точек зрения. В рамках исследования освещается роль аудита в обеспечении прозрачности финансовой деятельности некоммерческих организаций, контроле целевого и эффективного использования средств. Кроме того, рассматриваются особенности организации аудита в некоммерческом секторе, оценка достоверности финансовой отчетности, аудиторские риски, возникающие при использовании донорских средств и грантов, а также механизмы их минимизации. В статье научно проанализировано содержание, структура и значение аудиторских отчетов как источника информации для заинтересованных сторон. Результаты исследования могут способствовать укреплению финансового контроля, повышению подотчетности и прозрачности, а также совершенствованию аудиторской практики в некоммерческих организациях.

Ключевые слова: Некоммерческие организации, аудит, аудиторский отчет, финансовый контроль, грантовые средства, аудиторский риск, финансовая прозрачность, внутренний контроль, подотчетность.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida notijorat tashkilotlarining o'zni tobora ortib bormoqda. Notijorat tashkilotlari jamiyatning ijtimoiy, madaniy, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda boshqa muhim sohalarida faoliyat yuritib, davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tashkilotlarning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, ularning moliyaviy faoliyati asosan grantlar, xayriya mablag'lari, homiylik va boshqa maqsadli tushumlar hisobiga shakllanadi. Shu sababli, notijorat tashkilotlarida moliyaviy mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish hamda manfaatdor tomonlar uchun shaffof axborot taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda auditorlik tekshiruvi muhim nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, notijorat tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini mustaqil baholash, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va to'liqligini aniqlash, shuningdek mablag'lardan foydalanish samaradorligini tekshirish imkonini beradi. Auditorlik tekshiruvi natijasida tayyorlanadigan auditorlik hisobotlari esa tashkilot rahbariyati, donorlar, davlat organlari hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shu bilan birga, notijorat tashkilotlar faoliyatining o'ziga xosligi — moliyalashtirish manbalarining turli-tumanligi, grant mablag'laridan maqsadli foydalanish talablari hamda ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatning ustuvorligi — auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida alohida yondashuvni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan o'rganish, auditorlik hisobotlarining mazmuni va ahamiyatini tahlil qilish hamda ushbu sohada auditorlik amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlari, auditorlik hisobotlarining shakllanish jarayoni hamda ularning moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvi va auditorlik hisobotlarining o'ziga xos jihatlari ilmiy adabiyotlarda turli jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan auditorlik nazorati, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi hamda notijorat sektorida shaffoflikni ta'minlash masalalari keng yoritilgan.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini mustaqil ravishda baholashdan iborat ekani ta'kidlanadi. Arens, Elder va Beasley auditorlik faoliyatini moliyaviy axborotlarning belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan tizimli jarayon sifatida izohlaydi [1]. Mualliflarning fikriga ko'ra, auditorlik tekshiruvi tashkilotlarda moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot taqdim etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos jihatlari esa ushbu tashkilotlarning moliyalashtirish manbalari va faoliyat maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Porter, Simon va Hatherlylarning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilishicha, notijorat sektorida auditorlik tekshiruvi nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash, balki donor mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilishda ham muhim rol o'ynaydi [2]. Shu bois, auditorlik hisobotlari notijorat tashkilotlari uchun hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashning muhim instrumenti sifatida qaraladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham auditorlik faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Jumladan, A.A. Karimovning tadqiqotlarida auditorlik nazorati moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas



elementi sifatida talqin qilinadi hamda u xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi [3]. Muallif auditorlik tekshiruvining asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini baholash bilan birga, moliyaviy xatoliklar va noqonuniy operatsiyalarni aniqlashdan iborat ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish masalalari ham ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Xalqaro auditorlik standartlari (ISA) auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorlar amal qilishi lozim bo'lgan umumiy qoidalar va tamoyillarni belgilab beradi. Mazkur standartlar auditorlik hisobotining tuzilishi, auditorlik dalillarini to'plash jarayoni hamda auditorlik xulosasini shakllantirish tartibini tartibga soladi [4].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvini moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, mablag'lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish hamda tashkilot faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, notijorat sektorining o'ziga xos xususiyatlari auditorlik tekshiruvini tashkil etish va auditorlik hisobotlarini shakllantirish jarayonida alohida yondashuvni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos jihatlari hamda auditorlik hisobotlarining ahamiyatini o'rganish uchun umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvining nazariy asoslari, auditorlik hisobotlarining mazmuni hamda ularning moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi roli tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida xalqaro auditorlik standartlari, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar asosida notijorat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvini tashkil etish amaliyoti o'rganildi. Tahlil natijalariga asoslanib, auditorlik hisobotlarining samaradorligini oshirish hamda notijorat tashkilotlarida moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Notijorat tashkilotlar faoliyati foyda olishga emas, balki ijtimoiy, xayriya, madaniy, ta'limiy yoki boshqa jamoat manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tashkilotlarning moliyaviy resurslari ko'pincha grantlar, xayriya mablag'lari, a'zolik badallari va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan shakllanadi. Shu sababli notijorat tashkilotlar faoliyatida moliyaviy mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini, ularning belgilangan vazifalarga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda auditorlik tekshiruvini moliyaviy intizom va hisobdorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Notijorat tashkilotlarda auditorlik tekshiruvini va auditorlik hisobotlarini shakllantirish amaliyoti umumiy audit tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, ularning faoliyat maqsadi, moliyalashtirish manbalari va hisobot tuzilmasi bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarga ega. Auditorlik hisobotlarida moliyaviy natijalardan ko'ra, mablag'larning maqsadli sarflanishi, grant va xayriya shartlariga rioya etilishi hamda qonunchilik talablarining bajarilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur bo'limda notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvini va auditorlik hisobotlarining tashkiliy hamda uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish auditorlik xulosasining axborot qiymatini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Notijorat tashkilotlari – bu foyda olishni asosiy maqsad qilmagan, balki ijtimoiy, madaniy, ta'lim, ilmiy, xayriya va boshqa jamiyatga foydali maqsadlarda tashkil etilgan yuridik shaxslardir. Ular odatda davlat, jismoniy shaxslar yoki boshqa tashkilotlarning moliyaviy ko'magi hisobiga faoliyat yuritadi.

1-jadval. Notijorat tashkilotlarda auditorlik tekshiruvini va auditorlik hisobotlarining o'ziga xos jihatlari

Taqqoslash mezonlari	Notijorat tashkilotlarga xos jihatlari
Faoliyatning asosiy maqsadi	Foyda olish emas, balki ijtimoiy, xayriya, ta'limiy va jamoat manfaatlariga xizmat qilish
Moliyalashtirish manbalari	Grantlar, xayriya mablag'lari, a'zolik badallari, byudjetdan tashqari mablag'lar
Auditdan ko'zlangan asosiy maqsad	Mablag'larning maqsadli va qonuniy sarflanishini tasdiqlash
Auditorlik tekshiruvining yo'nalishi	Moliyaviy natijalardan ko'ra, xarajatlarning maqsadlilikligi va shaffofligi
Ichki nazorat tizimi	Ko'pincha cheklangan, donor talablari bilan tartibga solinadi
Auditorlik hisobotining mazmuni	Grant va xayriya shartlariga rioya etilishi, qonunchilik talablariga muvofiqlik



Auditorlik xulosasining foydalanuvchilari	Donorlar, homiyar, davlat organlari, jamoatchilik
Risklar xususiyati	Mablag'lardan noto'g'ri foydalanish, maqsadli xarajatlar buzilishi
Audit natijalaridan foydalanish	Hisobdorlikni ta'minlash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash

Notijorat tashkilotlarning asosiy xususiyatlari:

- Foyda taqsimlanmaydi – Notijorat tashkilotlari kelib tushgan daromadlarni o'z faoliyat maqsadlariga yo'naltiradi; ularga asos soluvchilar yoki a'zolar o'rtasida foyda taqsimlash mumkin emas.
- Ijtimoiy foyda maqsadi – Ushbu tashkilotlar ko'pincha jamiyat uchun foydali bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadi (masalan, xayriya, ekologiya, ta'lim, madaniyat).
- Moliyalashtirish manbalari – Davlat grantlari, xayriya mablag'lari, a'zolik badallari, homiylik va xalqaro tashkilotlar mablag'lari asosida moliyalashtiriladi.
- Davlat tomonidan tartibga solinadi – Har bir davlatda notijorat tashkilotlar faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus qonunlar mavjud.

Notijorat tashkilotlar turlari:

- Jamoat birlashmalari – Muayyan guruh manfaatlarini himoya qilish yoki ilgari surish uchun tashkil etiladi (masalan, ekologik jamiyatlar, yoshlar uyushmalari).
- Xayriya tashkilotlari – Ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar uchun yordam ko'rsatish maqsadida tuziladi (masalan, bolalar uylarini qo'llab-quvvatlash fondlari).
- Diniy tashkilotlar – Ma'naviy va diniy e'tiqodni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish bilan shug'ullanadi.
- Fondlar va grant tashkilotlari – Maqsadli moliyalashtirish orqali turli sohalarni qo'llab-quvvatlaydi (masalan, ilmiy tadqiqot fondlari).
- Kasaba uyushmalari – Ishchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar.
- Ta'lim va ilmiy muassasalar – Universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari, kutubxonalar.

Moliyaviy faoliyat (buxgalteriya hisobi):

- Byudjet asosida ishlash – Moliyaviy mablag'lar tashkilotning maqsadlariga muvofiq sarflanishi kerak.
- Hisobot berish – Notijorat tashkilotlar odatda davlat organlari yoki donorlar oldida hisobot berishi lozim.
- Soliq imtiyozlari – Ko'plab mamlakatlarda notijorat tashkilotlar uchun soliq imtiyozlari mavjud (masalan, daromad solig'idan ozod qilish).

Notijorat tashkilotlar jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shuvchi muassasalar bo'lib, ularning faoliyati ijtimoiy manfaatlarga qaratilgan. Ular odatda xayriya, ilm-fan, ta'lim, ekologiya va inson huquqlari sohasida ishlaydi hamda foyda olishni emas, balki jamiyat farovonligini oshirishni maqsad qiladi.

Shu nuqtai nazardan, notijorat tashkilotlar (NT) auditorlik tekshiruvi natijasida moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini, qonuniyligini va mablag'lardan foydalanish tartibini baholash imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon donorlar, davlat organlari va tashkilot a'zolariga ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

1.1. Auditorlik tekshiruvi maqsadlari:

- Mablag'larning maqsadli ishlatilayotganligini tekshirish.
- Moliyaviy hisobotlarning xalqaro yoki milliy standartlarga muvofiqligini baholash.
- Soliq va huquqiy majburiyatlarning bajarilishini tekshirish.
- Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash.
- Donorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchni ta'minlash.

1.2. Notijorat tashkilotlarda auditning ahamiyati:

- Davlat grantlari yoki xayriya mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlaydi.
- Ichki boshqaruv va moliyaviy tartibni yaxshilashga yordam beradi.
- Notijorat tashkilotning nufuzini oshiradi va yangi donorlarni jalb qilish imkonini yaratadi.
- Moliyaviy risklarni kamaytiradi va qonunbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

2. Auditorlik tekshiruvi bosqichlari:

2.1. Rejalashtirish:

- Audit hajmi va tekshiriladigan sohalarni aniqlash.
- Tashkilot hujjatlari va moliyaviy jarayonlarini o'rganish.
- Auditorlik strategiyasini ishlab chiqish va risklarni baholash.

2.2. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish:

- Hisobotlar va moliyaviy hujjatlarni tahlil qilish.
- Xayriya mablag'lari, grantlar va homiylik mablag'larining taqsimlanishini tekshirish.
- Shartnomalar va to'lovlarning qonunchilikka mos kelishini baholash.
- Ichki nazorat tizimining samaradorligini o'rganish.

2.3. Hisobot va auditorlik xulosasini tayyorlash:



- Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.
 - Moliyaviy holat va shaffoflik bo'yicha xulosa chiqarish.
 - Auditorlik hisoboti tuzilib, rahbariyat yoki manfaatdor tomonlarga taqdim etiladi.
3. Auditorlik xulosasi va hisoboti tarkibi:
- 3.1. Auditorlik xulosasi:
1. Ijoby xulosa – Moliyaviy hisobotlar ishonchli va standartlarga mos deb topilgan.
 2. Shartli ijoby xulosa – Ba'zi kamchiliklar aniqlangan, lekin ular tashkilotning umumiy faoliyatiga jiddiy ta'sir qilmaydi.
 3. Salbiy xulosa – Moliyaviy hisobotlarda xatoliklar mavjud bo'lib, tuzatish tavsiya etiladi.
 4. Xulosa berishdan bosh tortish – Auditor zarur hujjatlarni ololmagan va xulosa chiqarish imkoniga ega bo'lmagan.
- 3.2. Auditorlik hisoboti tarkibi:
1. Kirish:
 - o Audit maqsadi va hajmi
 - o Amalga oshirilgan auditorlik usullari
 - o Tekshirilgan moliyaviy davr
 2. Asosiy qism:
 - o Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi
 - o Mablag'lardan foydalanish tartibi
 - o Ichki nazorat tizimining samaradorligi
 - o Moliyaviy boshqaruvdagi muammolar (agar mavjud bo'lsa)
 3. Xulosa:
 - o Auditorning yakuniy bahosi va tavsiyalari
 - o Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar
 - o Auditorning imzosi va sanasi
 4. Auditorlik natijalaridan foydalanuvchilar:
 - Davlat organlari – NTning qonuniy faoliyatini nazorat qilish.
 - Donorlar va investorlar – Mablag'larning maqsadli ishlatilganiga ishonch hosil qiladi.
 - Tashkilot rahbariyati – Ichki moliyaviy boshqaruvni yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.
 - Jamoatchilik va manfaatdor tomonlar – NTning shaffofligini baholaydi va ishonchni oshiradi.
- Notijorat tashkilotlarda auditorlik tekshiruvi moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, qonunbuzarliklarning oldini olish va tashkilotning ishonchliligini oshirish uchun muhim jarayondir. Auditorlik hisoboti esa tashkilotning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvi moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni nazorat qilish hamda tashkilot faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Notijorat sektorining asosiy moliyaviy manbalari grantlar, xayriya mablag'lari va homiylik tushumlaridan iborat bo'lgani sababli, ushbu mablag'lardan foydalanish jarayonida moliyaviy nazoratning samarali mexanizmlarini joriy etish zarur hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari aynan shu jarayonda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash, mavjud xatolik va kamchiliklarni aniqlash hamda tashkilot faoliyatining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayoni ayrim jihatlari bilan tijorat tashkilotlaridan farq qiladi. Xususan, mablag'larning maqsadli sarflanishi, grant shartlari va donor talablariga rioya etilishi auditorlik tekshiruvining muhim obyekti hisoblanadi. Shu bois auditorlik hisobotlari nafaqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tasdiqlash, balki tashkilot faoliyatining samaradorligini baholashda ham muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvlarini xalqaro auditorlik standartlari asosida tashkil etish va auditorlik amaliyotini takomillashtirish;
- Notijorat tashkilotlarida ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish;
- Grant va xayriya mablag'laridan foydalanish jarayonida auditorlik nazoratini kuchaytirish hamda mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan monitoring tizimini rivojlantirish;
- Auditorlik hisobotlarining mazmuni va tuzilishini takomillashtirish orqali ularning manfaatdor tomonlar uchun axborot qiymatini oshirish.



Umuman olganda, notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvini samarali tashkil etish moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, hisobdorlik va shaffoflik darajasini oshirish hamda ushbu tashkilotlarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arens, Alvin A., Randal J. Elder, and Mark S. Beasley. *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. Pearson Education, 2017.
2. Porter, Brenda, Jon Simon, and David Hatherly. *Principles of External Auditing*. John Wiley & Sons, 2014.
3. Karimov, A.A. *Audit asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018.
4. International Federation of Accountants (IFAC). *International Standards on Auditing (ISA)*. New York, 2018.
5. Khakimov, B.J., Alimov, B.B., Kholmiraev, U.A., & Polechov, A.X. *Theory of Economic Analysis*. Tashkent: Economics-Finance, 2013.
6. Kholmiraev, U.A., & Kamoldinov, O.O. *Aspekty sovershenstvovaniya predstavleniya informatsii o debitorskoy zadolzhennosti po oborotnym sredstvam v bukhgalterskom balanse*. *Ekonomika i Sotsium*, 5-2(92), 767–779, 2022.
7. Kholmiraev, U.A. *Debitor qarzlari aylanishi tahlilini takomillashtirish masalalari*. 2023.
8. Xolmirzaev, U.B.A., & Madaliev, M.R. *Moliyaviy hisobotlarning qayta ko'rib chiqilishida xalqaro talablarga rioya etilishi zarurligi*. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 424–432, 2023.
9. Kholmiraev, U. A., & Samijonova, Sh. S. *Sovershenstvovanie otrazheniya deneg v bukhgalterskom balanse*. *Ekonomika i Sotsium*, 5-2(92), 755–766, 2022.
10. Isomukhamedov, A., Kholmiraev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. *Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms*. *Reliability: Theory & Applications*, 20(SI 10(88)), 365–371, 2025.
11. Kholmiraev, U. B., & Ubaydullayev, T. *O'zbekiston Respublikasida Davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish*. *Green Economy and Development*, 3(10), 667114, 2023.
12. Batirova, R., & Xolmirzaev, U. B. *Ulgurji savdo qoidalari va chakana savdodan farqli tomonlari*. *Green Economy and Development*, 3(9), 666890, 2023.
13. Kholmiraev, U., & Kamoldinov, O. *Ekonomika i sotsium*. *Ekonomika*, 625–627, 2022.
14. Yusupjonovich, D. T. *Improving the organizational and economic aspects of farms specializing in horticulture*. *International Engineering Journal for Research & Development*, 5(4), 6, 2020.
15. Yusupjonovich, D. T. *Effective use of investment in agriculture of the Republic of Uzbekistan*. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(7), 6–10, 2019.
16. Yusupjonovich, D. T. *Assess the impact of land reclamation on increasing agricultural productivity*. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(7), 769–777, 2020.
17. Khakimova, D. *Innovatsiya va innovatsion salohiyatning pedagogik ahamiyati*. O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti konferensiyalari, 204–208, 2025.
18. Mashrabjonovna, X. D. *O'qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish: zamonaviy o'qituvchini shakllantirishning asosiy omilli sifatida*. O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti konferensiyalari, 63–66, 2025.
19. Khakimova, D. M. *O'qituvchi faoliyatida innovatsion salohiyatning o'rni va ahamiyati*. Namangan Davlat Universiteti, 1, 523, 2020.
20. Xapizovich, X. A. *Directions of poverty reduction based on the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan*. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 632–636, 2023.
21. Xapizovich, X. A. *Important directions to fight against poverty*. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 777–780, 2023.
22. Kholmiraev, A. K. *Criteria and directions of development of small business activities*. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 730–735, 2021.
23. Kholmiraev, A. *Ways of small business development*. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 162–167, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100